

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGO–PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Djurakulova Adolat Xalmuratovna

*Termiz davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası katta o‘qituvchisi
Termiz, O‘zbekiston*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika darslarida kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, metodik shart-sharoitlari, matematika dasturining imkoniyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: *psixologiya, pedagogika, xususiyat, shart-sharoitlar, metodika, imkoniyat, dastur, shakllanish, muloqot, qobiliyat, o‘quvchilar, boshlang‘ich sinf, matematika.*

ANNOTATION

This article presents information about psychological and pedagogical features, pedagogical conditions, methodological conditions, and the possibilities of the mathematics program for the formation of communicative abilities of primary school students in mathematics lessons.

Key words: *psychology, pedagogy, feature, conditions, methodology, opportunity, program, formation, communication, ability, students, primary school, mathematics.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о психолого-педагогических особенностях, педагогических условиях, методических условиях, возможностях программы по математике для формирования коммуникативных способностей учащихся начальной школы на уроках математики.

Ключевые слова: *психология, педагогика, особенность, условия, методика, возможность, программа, формирования, коммуникативность, способность, учащихся, начальная школа, математика.*

Jahonda hozirgi kunda o‘quvchilarni jamoaviy va yakka tartibda izlanishga, o‘qib-o‘rganishga, ijodiy qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan masala dolzarb bo‘lib turibdi, ya’ni o‘quvchilar faoliyatida anglash orqali qo‘lga kiritiladigan muvaffaqiyatlar mahsuldorligini orttirishga, o‘quvchilarning birgalikda olib boradigan ijodiy qobiliyati qanday bo‘lishi kerakligiga doir bir qator muhim ahamiyatga molik munosabat bildirib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasini isloh qilishdagi sa‘y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta‘lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, umum ta‘lim maktablarida o‘qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi maqolamiz mavzusi dolzarbligining yana bir ko‘rinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko‘plab G‘arb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va o‘rganilgan. Masalan, N.N. Nechaev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov [5;118-b] singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda o‘rgangan bo‘lsalar, N.A. Berdyaev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiyalar kreativlikning ma‘naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

Biz avvalo Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ salohiyatni shakllantirishimiz uchun jarayonning umumiy mohiyatini to‘lig‘icha anglab olishimiz uchun dastlab „kreativlik“ „kreativ yondoshuv“ kabi tushunchalarning ma‘no mazmunini tushunib olishimiz kerak [3;118-119-b]

Kreativlik so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta‘riflagan.

Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g‘oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an‘anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo‘lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. . [2;1057-b]

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillastirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.

Kreativlik (lot., ing. "create " - yaratish, "creative " yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning

kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada Ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. R.A.Mavlanova o'zining «Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob'ekti sifatida tatqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. O'quvchi yoshlar jamiyatda ko'plab yutuqlarga, yuqori marralarga erishishi uchun lozim bo'ladigan ta'lim va tarbiya berish hisoblansa, kreativ fikrlash esa hozirgi kundagi yoshlarning rivojlanishi uchun muhim sanaladi. Ayniqsa, ilmiy bilimning hozirgi kundagi rivojlanishi kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri shu masalani ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda [5;47-b]. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Ko'plab ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunachiga nisbatan bir-biriga zid bo'lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

Pedagog olimi R.A.Mavlanova an'anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar:

- kreativlik tafakkur sifatida J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellektual faollik sifatida D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina), [7;119-b]
 - yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar).
- Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada

qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov) [6;120-b]

Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. Demak kreativlik-layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A.Mavlanova tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalari, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontsepsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. [3;818-b]

Ijodkorlikning asosiy mezonlari:

1. Fikr ravonligi - muayyan vaqt birligida vujudga keladigan g'oyalarning soni, g'oyalarni yuzaga keltiradigan qulaylik.

2. Fikrning moslashuvchanligi - bir fikrdan boshqasiga o'tish qobiliyati.

3. O'ziga xoslik - umumiy qabul qilingan stereotiplardan farq qiladigan g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati, stimullarga nostandart tarzda javob berish qobiliyati.

4. Qiziquvchanlik - muammolarga, atrofdagi vaziyatlarga sezgirlik, retseptivlik - g'ayrioddiy tafsilotlarga, qarama-qarshiliklar va noaniqliklarga sezgirlik, bir fikrdan boshqasiga tezda o'tishga tayyorlik.

5. Gipotezani ishlab chiqish qobiliyati - aniq fikr, keyinchalik uni sinchkovlik bilan tekshirish kerak.

6. Qoniqish - ijodkorlik natijasi, reaksiyalarning stimullardan mantiqiy mustaqilligi, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.

Ijodkorlikni rivojlantirib, o'quvchilar turli yo'nalishlarda o'ylashni, muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishni, nooddiy vaziyatlarda yechim topishni, aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantiradilar.

Iqtidorli shaxs qobiliyatning yana bir ko'rinishi - bu ijodiy qobiliyat sanaladi.

Kuzatuvchanlik, xotiraning mustahkamligi, obrazli tasavvur hosil qilish, ijodkorlik (kreativlik), mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, yangiliklar yaratishga intilish, izlanuvchanlik, o'z-o'zini tanqidiy baholash, fantaziyaga boylik, eng oddiy unsurlarni ham ilg'ay olish kabilar ijodiy qobiliyatga ega shaxsga xos sifatlardir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish doimiy ravishda badiiy asarlarni o'qib borish, kino, teatr, musiqa, hunarmandchilik va tasviriy san'at namunalari bilan tanishish, asarlardan bahramand bo'lish, ularga nisbatan shaxsiy baho berish hamda ko'proq tabiat qo'ynida bo'lish asosida rivojlanib boradi.

Ijodkorlik (kreativlik) ijodiy qobiliyatga ega shaxs faoliyatining muhim jihati bo'lib, u avval mavjud bo'lmagan sifatlarga ko'ra yangi sanaluvchi narsalarni yaratishni ifodalaydi. Ijodiy qobiliyat namoyon bo'lishi va natijasiga ko'ra betakror, o'ziga xoslik, shu bilan birga ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega faoliyat mazmunini aks ettiradi. Shaxsda ijodkorlik (kreativlik) sifatlari muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgan sharoitlardagina rivojlanadi. Masalan, tanqid erkinligi, ijodiy munozara, fikrlar

almashinuvi va ular o'rtasidagi o'zaro kurash, ijodiy qobiliyat, iqtidorni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik-psixologik va falsafiy yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar shaxs tomonidan tashkil etiluvchi ijodiy faoliyat bir necha bosqichda kechishini asoslab bergan. Jumladan, 1924 yilda angliyalik olim G.Uolles mazkur jarayonning quyidagi to'rt bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tgan. [2;819b]

- 1) tayyorgarlik;
- 2) g'oyalarning tug'ilishi;
- 3) ularning to'la aks etishi;
- 4) tekshirib ko'rish (nazorat).

G'oyalarning tug'ilishi va ularning aks etishi ijodiy jarayonning ongli-irodaviy boshqaruvga egaligini anglatmaydi. Aksincha, ijodiy faoliyat ko'p holatlarda beixtiyoriy, tasodifan amalga oshiriladi. Ana shu jihatiga ko'ra ko'pchilik tadqiqotchilar bu jarayonning yetarlicha samarani ta'minlay olishiga shubha bildiradilar. Biroq, keyingi 30-20 yil ichida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar beixtiyorlik, tasodifiylik ixtiyoriy va ongli faoliyatni to'ldirib turishi isbotlandi.

Ijodkor shaxs ijod jarayonida garchi fikr harakatining umumiy holati (o'ylab topish vaziyatlari, kashf etish, kutilmagan qarorlarni qabul qilish va hokazolar)ni kuzatib borsa-da, o'z-o'zini nazorat qilmaydi.

F.Galton tomonidan shaxs alohida qobiliyatga ega bo'lgandagina ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi mumkinligi to'g'risidagi qarashni ilgari surgan va ijodkor shaxsga xos bo'lgan pedagogik-psixologik sifatlar o'rganilgan. [1;171-174b] Biroq, F.Galton hamda daholik va uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etuvchi Ch.Lombrozoning qarashlari keskin tanqid ostiga olingan. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab esa shaxs qobiliyati, iqtidori va salohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda yondashuv ilmfan va texnika taraqqiyoti tufayli keskin o'zgardi. Chunki, unga qadar maxsus testlar inson aqliy qobiliyatini past darajada baholar va o'ziga xoslik, nostandart tafakkur namoyon bo'lgan vaziyatlarda ijodiy qobiliyat darajasini baholay olmas edi. Bu davrda shaxs ijodiy qobiliyati belgilarini aniqlashga xizmat qiluvchi yangi testlar tizimi yaratildi. Natijada ular yordamida tasavvur, aqliy imkoniyatning egiluvchanligi, uning turli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlay olish, shuningdek, ijodning ichki sabablarini o'rganish imkoniyati ham yuzaga keldi.

Amerikalik psixolog Ye.Fromm "ijodkorlik (kreativlik)" tushunchasini quyidagicha sharhlaydi. "Ijodkorlik (kreativlik) hayratlanish va anglash turli nostandart vaziyatlarda qarorlar qabul qilish malakasi. Yangiliklarni yaratishga intilish hamda shaxsiy tajribalarni chuqur anglashga bo'lgan layoqatdir." [7]

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ijodiy qobiliyat (uning o'sishi va pasayishi) ko'plab tashkiliy sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Masalan, shaxsning

faoliyati tanqid qilinmagan hamda baholanmaganda, shuningdek, ular hech qanday qo‘rquvni his etmaganlarida bolalar ijodiy va aqliy topshiriqlarni bajarishda yuqori samaradorlikka erishgan.

Kreativligi yuqori bo‘lgan shaxsda esa quyidagi sifatlar namoyon bo‘ladi:

Kreativlik yuqori bo‘lgan shaxs sifatleri

Tavakkal qilish qobiliyati	Boy tasavvurga egalik
Falsafiy fikrlash qobiliyati	Ichki sezgining rivojlanganligi
Fikr yuritish va harakatni tashkil etishdagi tezkorlik	Turli vaziyatlarni birdek qabul qilish va ularga javob berish qobiliyati
Tafakkur tezligiga egalik	Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik
Yangilik yaratish layoqatiga egalik	O‘ziga xos (orginal) g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyati

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Zero, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim, jismoniy tarbiya, tasviriy san’at, mehnat va musiqa o‘qituvchilari sifatida ularning ijodiy qobiliyatga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limning faol va yetakchi sub’ektlari bo‘lgan o‘quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari, shuningdek, tasviriy san’at, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari o‘qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Shaxsning hissiy qobiliyatga egaligi uning atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil eta olishiga imkon beradi. Zero, bu qobiliyat nafaqat o‘zligini tushunish, shu bilan birga atrofdagilarning o‘y-xayollari, ichki kechinmalari, orzu-o‘ylarini tushunish, ularni his qila olish, ruhan yaqin bo‘lishiga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy qobiliyati va ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lishlari esa ta’lim-tarbiya jarayonining faol sub’ektlari – o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning mo‘tadil kechishini ta’minlaydi va yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatini inobatga olish va unga muvofiq yondashish, shuningdek, o‘quvchilarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri tushunish, aytayotgan so‘zlariga ishonch bildirishda bo‘lajak pedagoglarning hissiy qobiliyatga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar bilan ruhiy-hissiy yaqinlik pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining garovi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.Ne‘matova Boshlang‘ich sinflarda kreativlikni takomillashtirish: “Xalq ta‘lim” ilmiy-metodik jurnali. 2021. №6/47-b.
2. Djuraeva D. SH. , Djurakulova A. X. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida nostandart masalalarni mulohaza yuritish usuli bilan yechish\ Zamonaviy ta‘lim. Toshkent. -2016. №9
3. Djurakulova A., Salomova B. Pedagogical Prerequisites for the Formation of Creativity of Elementary School Pupils. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS). -xorijiy ilmiy jurnal, 2022-yil. <http://innosci.org>
4. Galton F. Inguiriess into human faculty and its development,-London,1983.P-171-174b
5. G‘oziev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikka ta‘siri //Xalq ta‘limi. – Toshkent 2001. – № 4. –B. 31-37.
6. N. Xabibjonova „Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika darslarida ijodiy ishlashga o‘rgatish metodikasi” „SCIENCE AND EDUDATION” „SCIENTIFIC JOURNAL/ ISSN 2181-0842 818-819 b.
7. R.Mavlyanova,N.Rahmankulova „Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiya”Talabalar uchun o‘quv qo‘llanma.Toshkent-„VORIS-NASHRIYOT”-2013 118-b.
8. Otamurodova, S. Q. (2022). DIVERSIFICATION IS AN IMPORTANT PRINCIPLE OF CONTINUOUS EDUCATION. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 1061-1063.